

UDK: 636.5.619

TOVUQLARDA KANNIBALIZMNI OLDINI OLISH USULLARI

Esirgapov S. – magistrant
Eshburiyev S.B. – ilmiy rahbar, v.f.d.
Rustamov J. – magistr.
Baxtiyorov S. – talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada tovuqlarda kannibalizmni davolash va oldini olish bo'yicha ilmiy manbalar va xususiy tadqiqotlarning qisqacha mazmuni keltirilgan.

Annatation. This article provides a summary of scientific sources and private studies on how to treat and prevent cannibalism in chickens.

Аннотация. В этой статье представлена краткая информация о научных источниках и частных исследованиях о том, как лечить и предотвращать каннибализм у кур.

Kalit so'zlar: Tovuq, kannibalizm, tuxum, go'sht, kalsiy, oltingugurt, vitamin, oqsil, aminokislota, lizin, metionin, margenets sulfat, natriy bromat, trioksazin, innoprovet, probiotik.

Keywords: Chicken, cannibalism, egg, meat, calcium, sulfur, vitamin, protein, acid, lysine, methionine, margent sulfate, sodium bromate, trioxazine, innoprovet, probiotic.

Ключевые слова: Птиц, каннибализм, яйца, мясо, кальций, сера, витамин, белок, аминокислота, лизин, метионин, сульфат марганца, бромат натрия, триоксазин, иннопровет, пробиотик.

Mavzuning dolzarbligi. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarda kannibalizm turli sabablarga ko'ra yuzaga keladi, shuning uchun ushbu patologiyani barvaqt aniqlash va muommoni hal qilish dolzarb hisoblanadi. Tovuqlarda kannibalizm oqibatida ularning bir birini cho'qishi, tuxum sonining va sifatining pasayishi, ayrim paytda ularning nobud bo'lishidan katta iqtisodiy zarar kelib chiqadi [1,4,6,8].

Kannibalizm sodir bo'lganda ratsion tahlil qilinadi va kamchiliklar bartaraf etiladi, tajovuzkor tovuqlar alohida saqlanadi, yorug'lik 5-10 lyuks darajasida va xonada yorug'likning bir xil darajada taqsimlanishi yo'lga qo'yiladi. Lampochkalar qizil rangga bo'yaladi. Biroq qizil rangli yorug'lik ozuqa iste'molini 20% ga kamaytirish mumkin, tuxum ishlab chiqarish va tuxum vaznining pasayishiga olib keladi. Havoning nisbiy namligi 65-70% darajada saqlash kerak. Havo haroratini pasaytirish kerak (agar ko'tarilgan bo'lsa) va xonani ventilyatsiyasini yaxshilash kerak. Oziqlanish va suv ichish uchun optimal muhit yaratiladi. Terapevtik maqsadlarda yaralangan tovuqlar ajratiladi, shikastlangan joylariga glitserin va yod eritmasi bilan ishlov beriladi. Limon kislotasi 70-100 g/t miqdorda ozuqaga qo'shib beriladi. Margenets sulfat ($MnSO_4$) - 10 mg/bosh miqdorda beriladi. 1 tonna ozuqaga

1,5-2 kg fumarik kislota, 1,0-1,5 kg metionin qo'shib beriladi. Kannibalizm to'xtaguncha tovuqlarning 10 kg yemiga 0,3 trioksazin, 500 ml suvga 5,0 g natriy bromat qo'shib oziqlantiriladi. Profilaktika maqsadida yosh tovuqlarning tumshug'i kesiladi [2,3,5,7].

Materiallar va metodlar. Samarqand viloyati tovuqchilik fermer xo'jaliklaridan dispanser tekshirishlar natijasida kannibalizm bilan kasallangan Ross-308 zotli tovuqlardan 10 bosh ajratib olinib ularga kannibalizmni oldini olishda "INTROVIT A+WS" preparatining samaradorligini o'rganish uchun har birida 5 boshdan 2 ta tajriba guruhi tuzildi. Birinchi tajriba guruhiga "INTROVIT A+WS" preparatini 1 grammdan 4 litr suviga qo'shib berildi. Nazorat guruhiga xo'jalik rasionida oziqlantirildi. Tajribalar 30 kun davomida o'tkazildi. (Preparat har 7 kunda 5 kunlik tanaffus bilan berib borildi).

Olingan natijalar tahlili. Tovuqlarda tuxum berish davrida ular organizmining vitaminlarga bo'lgan talabining keskin o'zgarib borishi tovuqlarda yengil, o'rta va og'ir kannibalizmga olib keladi. Tajribadagi tovuqlar tuxum mahsuldorligi tajribalar oxirida 86 % ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat guruhida 58 % ni tashkil etdi.

Tajribadagi tovuqlarning klinik ko'rsatkichlari tajribalarning boshidagi ko'rsatkichlarga nisbatan tajribalarning oxiridagi ko'rsatkichlarga nafas sonini o'rtacha 1,2 marta, yurak urishning o'rtacha 1,07 martaga, tuxum mahsuldorligini 1,28 martaga, tuxum vazni o'rtacha $5,6 \pm 0,2$ grammga oshganligi aniqlandi

Tovuqlarda tuxum berish davrining kuchaygan paytida organizmda A, D, E, C va B guruhi vitaminlar miqdorining kamayishi, to'yimli oziqalarga va vitaminlarga bo'lgan talabning kuchayishi bilan izohlanadi.

Nazorat guruhidagi tovuqlarning klinik ko'rsatkichlari tajribalarning boshidagi ko'rsatkichga nisbatan tajribalarning oxiriga kelib, nafas sonini o'rtacha 1,07 marta, yurak urishning o'rtacha 1,01 martaga, tuxum mahsuldorligini o'rtacha 1,15 martaga, tuxum vaznining o'rtacha $3,8 \pm 0,3$ grammga kamayganligi aniqlandi. Tuxum tug'adigan tovuqlarga kannibalizmga qarshi profilaktika qilinib turilmasa mahsuldorlik va tuxum vaznining kamayishiga olib keladi.

Tajribadagi tovuqlar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari (n=10)

Guruhlar	Vaqt	Gemoglobin, g/l	Kalsiy, mmol/l	Fosfor, mmol/l	Umumiy oqsil, g/l
Tajriba	A	$98,5 \pm 2,6$	$2,52 \pm 0,52$	$2,43 \pm 0,18$	$46,4 \pm 0,12$
	B	$102,5 \pm 2,6$	$2,64 \pm 0,56$	$2,48 \pm 0,12$	$48,5 \pm 0,34$
Nazorat	A	$96,2 \pm 2,3$	$2,48 \pm 0,56$	$2,44 \pm 0,23$	$44,2 \pm 0,28$
	B	$92,4 \pm 1,5$	$2,45 \pm 0,30$	$2,38 \pm 0,25$	$40,2 \pm 0,16$

A- tajriba boshi; B-tajriba oxiri

Shu klinik belgilar bilan bir qatorda kam harakatlik, o'sishdan qolish, oriqlash, mahsuldorlikning pasayishi va patlarning hurpayishi, patlarning tushishi, bir-birining patini yeyishi, kloastit kabi kannibalizmga xos bo'lgan belgilar qayd qilindi.

Tajribalarning boshida nazorat guruhida gemoglobin miqdori o'rtacha $96,2 \pm 2,3$ g/l ni, tajriba guruhida o'rtacha $98,5 \pm 2,6$ g/l ni tashkil etdi. Tajribalarning oxiriga kelib gemoglobin miqdorining nazorat guruhida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan o'rtacha 3,8 g/l ga kamayganligi, tajriba guruhida o'rtacha 4,01g/l ga, oshganligi qayd etildi. Tovuqlar qon zardobidagi umumiy oqsil miqdorining tajribalar oxirida

nazorat guruhida o'rtacha 40,2±0,16 g/l gacha kamayganligi, tajriba guruhida o'rtacha 48,5±0,34 g/l gacha ko'payganligi kuzatildi.

Tovuqlar qonidagi kalsiy va fosfor miqdori nazorat guruhida dastlabki ko'rsatkichlarga nisbatan tajriba oxirida shunga mos holda o'rtacha 2,45±0,30 mmol/l va 2,38±0,25 mmol/l gacha kamayganligi, tajriba guruhida bu ko'rsatkichlarni tajribalar oxiriga kelib sezilarli darajada ortganligi aniqlandi.

Xulosa. Tuxum yo'nalishidagi tovuqlarning rasioniga qo'shimcha 4 litr suviga 1 gr dan INTROVIT A+WS qo'shib berilishi ularda nazorat guruhiga nisbatan tuxum mahsuldorligini o'rtacha 10-15% ga, tuxum vaznini o'rtacha 8,4 grammga ko'p bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Эшбуриев, С. Б., Нарбаев, К., & Костомахин, Н. М. (2017). Групповая профилактика нарушения витаминно-минерального обмена у высокопродуктивных коров. *Главный зоотехник*, (11), 3-8.
2. Sh, N., Elmurodov, B. A., & Eshburiev, S. B. (2022). TUXUM YONALISHDAGI TOVUQLAR MAHSULDORLIGIGA NOVAMIX PREMIKSINING TASIRI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 476-479.
3. Norboev, K. N., Rakhmonov, U. A., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2022). Effectiveness of Vitaprem and Probiotic Bio-3s in Group-Prophylaxis of Hens' Hypovitaminoses. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 9(11), 308-314.
4. Rakhmonov, U. A., Norboev, K. N., Ruzikulov, N. B., & Eshburiev, S. B. (2021). Results of group-prophylactic treatment of chicken hypovitaminosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 243-248.
5. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. (2019). Морфофункциональная характеристика яичников у коз.
6. Элмуродов, Б. А., & Эшбуриев, С. Б. (2021). ТОВУҚЛАРДА МИНЕРАЛЛАР АЛМАШИНУВИ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ КЛИНИК БЕЛГИЛАРИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).
7. Eshbo'riev, B. M., Eshbo'riev, S. B., & Djumanov, S. M. (2020). Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-labarotoriya mashg'ulotlari. *O „quv qo „llanma, Samarqand*.
8. Eshburiyev, S. B., Kasimov, S. J., & Aslonova, M. A. (2023). Causes and symptoms of protein metabolism disorders in fish. In *Proceedings of international conference on scientific research in Natural and Social Sciences* (Vol. 2, No. 1, pp. 55-63).
9. Нурмухамедов, Б. М., Дилмуродов, Н. Б., Эшбуриев, С. Б., & Эшматов, Г. Х. (2019). Морфофункциональные изменения в яичниках коз под влиянием гонадотропных препаратов.

10. Eshburiyev, S. B., Qarshiyev, U. T., & Yusupova, Z. (2022). Prophylaxis of mineral metabolism disorders in rabbits. *Agrobiotexnologiya va veterinariya tibbiyoti ilmiy jurnali*, 399-402.
11. Karshiev, U. T., Eshburiev, S. B., & Yusupova, Z. M. Etiopathogenesis of Calcium–Phosphorus Metabolism in Rabbits. *International Journal of Current Science Research and Review. ISSN*, 2581-8341.
12. Eshbo'riyev, S. B., & Qarshiyev, U. T. (2022, December). Effectiveness of probiotics in preventing disorders of calcium-phosphorus metabolism in rabbits. In *Proceedings of International Educators Conference* (Vol. 1, No. 3, pp. 72-78).
13. Abdumajitov, V. B., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocalcaemia in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.
14. Норбаев, К. Н., Даминов, А. С., & Эшбуриев, С. Б. (2019). Этиопатогенез вторичной остеодистрофии у коров.
15. Эшбуриев, С. Б., & Эшбуриев, Б. М. (2014). Эффективный метод профилактики нарушения витаминно-минерального обмена у коров. *The Way of Science*, 34.
16. ЭШБУРИЕВ, Б. М., & ЭШБУРИЕВ, С. Б. (2013). Профилактика микроэлементозов у стельных коров в фермерских хозяйствах Узбекистана. *Вестник ветеринарии*, (3), 68-70.
17. Bakhtiyorovich, E. S., & SaifiddinJakhongirUgli, K. (2023). DIAGNOSIS OF PROTEIN METABOLISM DISORDERS IN FISH. *American Journal Of Agriculture And Horticulture Innovations*, 3(05), 04-12.
18. Aslonova, M. A., Toshmurodov, S. S., & Eshburiyev, S. B. (2023). SUV TARKIBI VA MUHITINI O'ZGARTIRUVCHI OMILLAR TA'SIRIDA BALIQLARDA KELIB CHIQADIGAN KASALLIKLAR. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 16(4), 59-66.
19. Eshburiyev, S., Kasimov, S., Badirova, K., & Shomurodov, M. (2021). ПРОФИЛАКТИКА НАРУШЕНИЯ БЕЛКОВОГО ОБМЕНА У РЫБ. *Вестник ветеринарии и животноводства (ssuv. uz)*, 1(1).
20. Eshburiev, S. B. (2011). *Etiopathogenesis and prevention of secondary osteodystrophy of cows* (Doctoral dissertation, Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology).
21. Эшбуриев, Б. М., Нормурадова, З. Ф., & Эшбуриев, С. Б. (2017). Усовершенствование методов лечения диспепсии телят.
22. Eshbo'riyev, S. B., & Qarshiyev, U. T. (2022). Qayonlarda kaltsiy-fosfor almashishi buzilishini oldini olishda probiotiklarning samarali. *Xalqaro pedagoglar konferensiyasi materiallarida (3-jild, 72-78-betlar)*.
23. Эшбуриев, С. Б. (2011). Этиопатогенез и профилактика вторичной остеодистрофии коров. *Дисс.... канд. вет. наук. Самарканд*, 46.
24. Norboev, Q. N., Eshburiev, B. M., Eshburiev, S. B., & Xudoyberganov, S. (2017). Buzoqlarda alimentar anemiya kasalligining diagnostikasi va profilaktikasi bo'yicha tavsiyalar.

25. Норбоев ҚН, Э. Б., Эшбуриев, С. Б., & Рахмонов, У. А. Бройлер жўжалар ва тухум йўналишидаги товукларни парвалишлаш бўйича тавсиялар. *Самарқанд–2018*.

26. Erbotayev, S. X., & Eshburiyev, S. B. (2023). ASALARILARNING KIMYOVIY MODDALARDAN ZAXARLANISHLARINI ANIQLASH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 20(8), 126-131.

27. Norboyev, K. N., Rakhmanov, U. A., Ata-Kurbanov, A. E., & Eshburiyev, S. B. (2023). The use of Vitatonik feed additives and Bio-S3 probiotic on the productivity and resistance of laying hens. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 462, p. 01009). EDP Sciences.

28. Sh, X. N., Ergashev, J., & Eshburiyev, S. B. (2022). TOVUQLARDA VITAMIN VA MINERALLAR ALMASHINUVI BUZILISHLARINING KECHISH XUSUSIYATLARI. *AGROBIOTEKNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIIY JURNALI*, 480-483.

29. Эшбуриев, С., Каршиев, У., & Юсупова, З. (2022). Этиологические факторы нарушения кальция и фосфора у кроликов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 300-306.

30. Эшбуриев, С. Б., & Бадирова, К. А. (2021). БАЛИҚЛАРДА ОҚСИЛЛАР АЛМАШИНУВИ БУЗИЛИШЛАРИНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИ. *ВЕСТНИК ВЕТЕРИНАРИИ И ЖИВОТНОВОДСТВА*, 1(1).

31. Abdumajitov, V. B., Eshburiyev, B. M., Eshburiyev, S. B., & Sulaymonov, M. A. (2021). Etiopathogenesis and symptoms of hypocobaltosis in productive cows. *Academicia: an international multidisciplinary research journal*, 11(2), 115-120.

32. Абдураимова, Г. Т., & Эшбуриев, С. Б. (2021). Нарушения обмена пчел.

33. Эшбуриева, С. Б., & Сулаймонова, М. А. (2021). Бронхит у кур-бройлеров: причины и клинические симптомы.